

RAQAMLI JAMIYATDA MA'NAVIY QADRIYATLARNING TRANSFORMATSIYASI: IMKONIYAT VA TAHDIDLAR

Eshmanova Nodira Nazarkulovna

ChDPU, Maktabgacha va boshlang'ich talim metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Bobomurodova Baxtigul Muzaffarovna

ChDPU, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Jumaboyeva Munisa Mansur qizi

ChDPU, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18604369>

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida ma'naviy qadriyatlarining o'zgarish jarayonlari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish jarayonining inson tafakkuri, axloqiy ong va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, raqamli madaniyatning imkoniyatlari va tahdidli jihatlari ko'rsatilib, ma'naviyatimizni asrovchi samarali yo'llari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli jamiyat, ma'naviy qadriyatlar, transformatsiya, raqamli madaniyat, axborot xavfsizligi, yoshlar, virtual muloqot.

XXI asrda insoniyat hayotining barcha sohalarida raqamli texnologiyalar chuqur ildiz otmoqda. Bu jarayon "raqamli jamiyat" (ya'ni bu insonlar faoliyati, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti raqamli texnologiyalar orqali boshqariladigan shaklga kirishi) tushunchasini shakllantirdi. Raqamli transformatsiya bir tomondan inson hayotini yengillashtirib, axborotga tezkor kirishni ta'minlasa, boshqa tomondan, insonning ruhiy-axloqiy olamiga ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ma'naviy qadriyatlar va axborot texnologiyalari o'rtasidagi muvozanatni saqlash global masalaga aylanmoqda.

Raqamlashtirish sharoitida: ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar tez tarqalmoqda; Yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirish, global axborot almashinuviga kirish imkoniyati mavjud. Masofaviy ta'lim va ijodiy erkinlik rivojlanmoqda; Ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarni dunyoga targ'ib etish osonlashmoqda.

Raqamli texnologiyalar yoshlar va jamiyatning boshqa qatlamlariga bir qator imkoniyatlar yaratadi: Bilimga erkin kirish: internet va elektron kutubxonalar orqali insonlar istalgan vaqtda ma'lumot olishlari mumkin, bu esa tanqidiy tafakkur va bilim darajasini oshiradi. Madaniy va ma'naviy tajribalarni almashish, raqamli platformalar global miqyosda turli xalqlarning madaniy merosi bilan tanishishga imkon beradi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish, onlayn kurslar, interaktiv o'yinlar va ilmiy platformalar yoshlarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini mustahkamlashga yordam beradi.

Biroq raqamli jarayonlar bilan birga quyidagi xavf-xatarlar ham kuchaymoqda: Axborot hujumlari, g'oyaviy tazyiq va ma'naviy tahdid. "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har bir insonning erkin hayot kechirishi va ruhiy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar tushuniladi" [1]. Raqamli jamiyatda soxta qadriyatlarining targ'iboti. Natijada insonlar ongida an'anaviy ma'naviy me'yorlar buziladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayoni ijobiy va salbiy oqibatlarni bir vaqtning o'zida keltirib chiqaradi [2].

Globalizatsiya jarayoni dunyodagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning keskin kengayishi bilan tavsiflanadi. Bu hodisa insoniyat taraqqiyotiga katta imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, ayni paytda milliy va ma'naviy qadriyatlar uchun yangi sinovlarni yuzaga keltiradi.

Asosan, global axborot oqimining kuchayishi va turli madaniyatlarning chambarchas aralashuvi va bir-biriga ta'siri yoshlar ongida milliy qadriyat tushunchasining zaiflashishiga olib keldi. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, xususan, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning qadriyatlar tizimini global standartlarga yaqinlashtiradi.

Hurmatli birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida - "bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida yuzaga kelayotgan muammolar, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini zararli g'oyalar va mafkuralardan himoya qilish masalasi, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega"-deb ta'kidlaganlar.

Raqamli jamiyat sharoitida ma'naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni qo'llash samarali bo'ladi:

1. Ta'lim tizimida raqamli ma'naviyat fanini joriy etish: Maktab va oliy ta'lim muassasalarida raqamli muhitning ijobiy va salbiy ta'sirlarini o'rgatuvchi fanlarni kiritish orqali yoshlarning ma'naviy ongini mustahkamlash.

2. Yoshlar orasida axborot madaniyatini oshirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish: Axborot manbalarini tanlash, dezinformatsiyadan saqlanish va onlayn axloq qoidalariga rioya qilish bo'yicha treninglar va seminarlar tashkil etish.

3. Internetdagi milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi platformalarni ko'paytirish: Virtual maydonda milliy tarix, madaniyat va urf-odatlarini keng targ'ib etuvchi ta'limiy va interaktiv platformalarni yaratish.

4. Virtual makonda milliy o'zlikni himoya qiluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish: Onlayn resurslar orqali yoshlarni milliy qadriyatlarni hurmat qilishga o'rgatish va global axborot tahdidlariga qarshi himoya choralarini joriy etish.

Ma'naviy barqarorlikni ta'minlash uchun raqamli madaniyatga oid ta'lim tizimini takomillashtirish, yoshlarni ma'naviy immunitetga ega qilib tarbiyalash, internet makonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un targ'ib etish zarur. Globalizatsiya milliy ma'naviyatni boyitish uchun ham qulay sharoit yaratadi.

Chet el trendlariga taqlid qilish o'rniga, milliylikimizni internet makonida dunyoga tanitsak, bizga ergashgan chet elliklar ko'paysa ajab emas.

Jahon tajribasi, ilg'or pedagogik qarashlar, ma'naviy-ma'rifiy yondashuvlar bilan tanishish milliy qadriyatlarni yangicha mazmunda rivojlantirish imkonini beradi. Muhimi, bu jarayonni boshqarish va global madaniyat ta'siri ostida milliy o'zlikni yo'qotib qo'ymaslikdir. Ma'naviy mustahkamlik, tarixiy xotira va milliylikimizni qo'llab-quvvatlash global jarayonlar bosimiga qarshi turishda asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli jamiyatda ma'naviy qadriyatlar o'zgarishsiz qolmaydi, ular yangi texnologik muhitga moslashadi. Asosiy vazifa — transformatsiya jarayonida ma'naviyatning mazmuniy ildizini yo'qotmaslik, balki uni zamonaviy shakllarda qayta tiklashdir. Raqamlashtirish — bu imkoniyat, biroq uni to'g'ri boshqara olmasak, u ma'naviy tahdidga aylanadi. Shuning uchun, jamiyatda raqamli madaniyat va ma'naviy barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash eng muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Yo'ldashev, Sh. (2016). "Globalizatsiya va milliy qadriyatlar". Jahon va jamiyat, 11(2)
3. To'x tiyev A. Axborotlashgan jamiyatda ma'naviyat masalalari. Toshkent, 2020
4. Axmedov, M. Raqamli jamiyat va ma'naviyat. Toshkent: Fan, 2021.
5. Islomov, S. Axborot texnologiyalari davrida yoshlar tarbiyasi. Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
6. Tursunov, R. Globalizatsiya va milliy qadriyatlar: pedagogik yondashuvlar. Toshkent: O'qituvchi, 2020.